

**Sobirjon BEKNAZAROV,**  
Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi, mustaqil talqiqotchi  
E-mail: [beknazarovs@mail.ru](mailto:beknazarovs@mail.ru)

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori X.Raxmatov taqrizi asosida

## ETHNODEMOGRAPHIC PROCESSES UNDER AMIR TEMUR AND TIMURIDS

Annotation

This article discusses ethnic processes during the period of Amir Temur and Timurids, as well as the location of the Barlos, Kangar-Kangli, Qarluq, Arghun, Duglat, Oguz, Yasauri, Uz and Az clans, as well as their social and cultural life.

**Key words.** Amir Temur, Temurians, Movarunnahr, ethno-demographic processes, Barlos, Kangar-Kangli, Karluq, Arghun, Doghlat, Oghuz, Yasavuriy, Uz and from the roots and others

## ЭТНОДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ПРИ АМИРЕ ТЕМУРЕ И ТИМУРИДАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются этнические процессы в период правления Амира Темура и Тимуридов, а также местонахождение родов Барлос, Кангар-Кангли, Карлук, Аргун, Дуглат, Огуз, Ясаури, Уз и Аз, а также их общественная и культурная жизнь.

**Ключевые слова.** Амир Темура, Темурийцы, Моваруннахр, этнодемографические процессы, Барлос, Кангар-Кангли, Карлук, Аргун, Доглат, Огуз, Ясавурий, Уз и от корней и другие.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ETNODEMOGRAFIK JARAYONLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida etnik jarayonlar, shuningdek barlos, qang'ar-qangli, qarluq, arg'un, dug'lat, o'g'uz, yasavuriy, uz va az urug'-qabilalarining joylashuvi, ularning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Amir Temur, temuriylar, Movarounnahr, etnodemografik jarayonlar, barlos, qang'ar-qangli, qarluq, arg'un, dug'lat, o'g'uz, yasavuriy, uz va az urug'lari va boshq.

Amir Temur Movarounnahr hokimiyatiga kelgach, mamlakatda mo'g'ullar hukmronligi barham topadi. Uning turkiy etnik asosini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Amir Temur saltanatining o'zagi hisoblangan Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda mahalliy sug'diy, xorazmiy, boxtariy va sak qabilalari hamda davridan e'tiboran yashab kelayotgan prototurk ajdodlarimizning talay moddiy madaniyati mavjud ediki, bu etnik qatlamlar tarkibiga V – XIII asrlar davomida juda ko'p turkiy elat va qavmlar (qangli, qarluq, chigil, xalach, turk, o'g'uz, uz, arg'un, tuxsi, yag'mo, dug'lat, sulduz, yasavuriy, qipchoq, barlos, jaloyir, arlot, va boshqalar) kirib kelib, ular ta'sirida mintaqada qadimgi eroniy tilli (sug'diy, xorazmiy, boxtariy) ajdodlarimizning turklashish jarayonini tezlashtirdi [1:452].

Ularning aksariyat ko'pchiligi O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlariga joylashib, mahalliy aholi bilan aralashib yashaganlar. XI – XIII asrlarga kelib Movarounnahrda etnik holat shu darajada o'zgardiki, endi bu zamin to'la qonli Turkistonga aylandi, turkiy etnik qatlam mintaqada har jihatdan hukmron etnos bo'lib qoldi. Chingizxon bosqini va Chig'atay ulusini tashkil etish munosabati bilan bu zaminga kirib kelgan mo'g'ullarning Dashti Qipchoqda qolib ketgan urug'-aymoqlari XIV – XV va keyingi asrlarda Movarounnahrda yuz bergan siyosiy voqealarda faol qatnashib, turkiylashib ketgan edilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Etnik kelib chiqish jihatidan turk qavmlariga tegishli bo'lgan **uz** va **az** qabilalari o'zbek xalqi etnogenezida o'z o'rniga ega. Ammo, ular haqidagi mavjud ma'lumotlar xilma-xil qarashlar va farazlardan iborat. Masalan, XIX asrning 60-80 yillarida tarixiy-etnografik asarlarda (G.Z.Bayer, D.A. Xvolson, F.Sum, S.M. Solovyov va boshqalar) uzlarni qipchoqlarning bir urug'i sifatida tilga olinadi. N.M. Karamzin, M.P. Pogodin, F. Brun, P. Golubovskiyalar rus yilnomalariga asoslanib, uzlarni torklar tarkibiga kiritgan. I.N. Jiteskiy uzlarni bajaraklar qabilasiga tegishli urug' jamoasi desa, N.A. Aristov, V.V. Bartold, S.A. Pletneva, S.G. Agadjanovlar uzlarni o'g'uzlar tarkibiga kirgan qabila sifatida talqin etadi. D.A. Rasovskiy uzlarni o'g'uzlar tarkibiga kiritishni asossiz hisoblab, ularni torklar qavmiga tegishli urug' jamoalaridan biri, deydi. M.M.Ermatov "az" va "uz" etnonimlari bitta qavmga tegishli, "O'zbek" so'zi aynan ana shu atamalardan kelib chiqqan, deydi. R.A.Agaeva "o'zbek" etnik nomi "az" va "uz" etnonimlaridan kelib chiqqan. Elshunos olim K.Shoniyozovning ta'kidlashicha, "uz" va "az" etnonimlari alohida qabilalar bo'lgan. Ularni na torklar, na qipchoqlar, na bajaraklar, na o'g'uzlar tarkibidagi urug' jamoalari deb atash xatodir. Mavjud tarixiy-etnografik materiallar tahliliga ko'ra, uzlar o'tmishda turkiyda so'zlashuvchi bir necha urug' jamoalarining mustaqil qabila ittifoqi bo'lgan deydi [7:70].

Atoqli elshunos olim Karim Shoniyozovning yozishicha, jsh asrlarda Movarounnahrda yashovchi qarluq, chigil, xalach, arg'un, barlos, jaloyir, arlot, qavchin, o'g'uz va qipchoq qavmlari salmoqli etnik guruhlar XIV – XV asrlar davomida o'troqlashib, mahalliy aholiga aralashib ketgan edi. Ularning faqat uncha katta bo'lmagan guruhlar yarim o'troqlikda yashab, lalmikor dehqonchilik va bog'dorchilik bilan birga, an'anaviy mashg'ulotlari – yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanib kelgan. Ana shunday turk va turklashgan mo'g'ul qabilalardan ba'zi birlari haqida to'xtab o'tamiz.

XIII asrning 60-yillarida tashkil topgan Chig'atay ulusining Amir Temur va temuriylar saltanatining tayanch etnik guruhlaridan biri **barloslar** bo'lgan. Ular Amir Temur boshchiligidagi mo'g'ullar hukmronligini Movarounnahrda barham topishida faol qatnashib, mamlakat ichki hayotining barcha jabhalarida oldingi saflarda bo'lgan. Amir Temur o'g'il va nabiralari u yoki bu yurtni suyurg'ol qilganda, u yerga, eng ishonchli kishilar sifatida barloslardan qo'shib yuborgan. Ulardan ma'muriy mansablarda ham foydalanilgan. Masalan, Tag'ay-bug'o barlos Buxoroni, Dodmalik barlos Hisori Shodmonni, G'iyosiddin barlosning o'g'li Kirmanni boshqargan.

Amir Temur vafotidan keyin barloslar uning avlodlariga sadoqat bilan xizmat qilishda davom etadi. Shoxruh Mirzo davlat siyosatini ular doimo qo'llab-quvvatlab kelganlar, Ulug'bek 14 yil Qashg'arni o'z hukmda saqlab turishida ko'proq ularga suyangan, Pirmuhammad barlosning Qashg'arni boshqarishida barloslar bosh-qosh bo'lgan [2:43].

Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, XV asrda barloslar Temuriylar davlatining turli viloyatlarida yashab, ularning vakillari amir unvonida temuriyodalarga xizmat qilgan. Ular avval joylarda etnografik urug' jamoalari sifatida

yashab kelgan. Keyin mahalliy aholi til ta'sirida mutlaqo turkiylashadi. Ammo, Movarounnahr va uning atrof viloyatlarida Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgach, barloslarning avvalgi mavkei pasayib ketdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mahalliy sug'diy tilli aholi va o'zga etnik guruhlarining turkiylashish jarayoni avval Sirdaryoning o'rta va quyi havzalarida jadal kechadi. Bu mintaqada turkiylashgan **qang'ar-qangli** elati tarkib topadi. Qang'ar-qangli elatining etnik tarkibi ko'p komponentli bo'lib, unda turkiy jilo ustuvor mavqega ega edi. Biroq, Qang'ar davlati parchalangach, K.Shoniyozov qayd qilganidek, ko'p etnik komponentli qang'ar elati ham tarqab ketdi, yaxlit elat sifatida rivojlanishda davom etmadi. O'z davrida uning tarkibida bo'lgan qanglilar Chingizxon bosqiniga qadar Xorazmda va Samarqand atrofida yashagan. Ularning asosiy qismi Dashti Qipchoqda, Balxash qo'li atroflarida, Ila daryosi sohillarida ko'chib yurgan. Ularning Dashti Qipchoq guruhleri Amir Temur davrida Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasiga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib o'troqlashib ketgan.

O'zbek xalqi etnik tarkibida ustuvor o'rin olgan turkiy ajdodlarimizdan yana biri **qarluqlar** hisoblanadi. Qaluqlarning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi bir necha xronologik bosqichlarda yuz bergan. Ularning birinchi guruhi milodiy VI asrdan boshlab Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Toxaristonga kelib o'rtnashib, mahalliy aholi bilan aralashib, qorishib, o'troqlashib ketgan. Ikkinchi guruh qarluqlar mo'g'ullar bosqini davrida Ili daryosi havzasi va Yettisuvdan Toshkent va Zarafshon vohalariga, Shimoliy Toxaristonga kelib o'rtnashib, bu yerlarda oldindan kelib qolgan urug'-aymoqlari bilan qo'shilib ketgan. Qarluqlarning uchinchi guruhi XV asrda Dashti Qipchoqdan Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan [3:166]. Karluqlar va ularga qardosh xalach va chigil qabilalari XIV – XV asrlarda Zarafshon vohasida, Toxaristonda yashar edi. Ular Movarounnahrning siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Dashti Qipchoqda qolib ketgan qarluqlar guruhi Shayboniy qo'shinlari bilan birga XVI asr boshlarida Movarounnahrda kirib keladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek xalqi etnik tarkibida **arg'unlar** o'z o'rmini topgan. Sirdaryoning o'ng qirg'oq quyi havzalarida yashovchi arg'unlarning ayrim guruhleri VIII – XII asrlar davomida Toshkent vohasiga, Farg'ona vodiysining O'zgan atroflariga, Zarafshon vohasi va Janubiy O'zbekiston hududlariga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib, ularning katta qismi o'troqlashib ketadi. Ularning bir guruhi XI asrda Xuroson hududlariga borib o'rtnashadi. XIV-XV asrlarda arg'unlarning asosiy qismi Farg'ona vodiysida, Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Afgonistonda yashagan. Ular borgan joylarining til muhitiga ko'ra, yo mahalliy aholini turklashishiga yordam bergan yoki ular ta'sirida o'z etnik nomlarini unutmagan holda forsdiy tilli tojiklarga aylangan.

Arg'unlar Amir Temur davlatining tayanchi bo'lgan qirg'o'zbek qavmlaridan biri bo'lgan. Ular imtiyozli katta yer egalari–tarxonlar hisoblangan. Arg'unlardan chiqqan amirlar ayrim viloyatlarda hokimlik qilganlar. Masalan, Sulton Xusayn arg'un Qorako'l tumanining hokimi, Mahmud Muqim arg'un Qobul hokimi bo'lgan. Arg'unlarning yuqori tabaqali kishilari Temuriylar xonadoni bilan qarindoshlik munosabatda ham bo'lgan. Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgach, arg'unlarning mavkei tushib ketadi. Ular asosan o'troqlashib, turg'un aholi bilan qorishib ketgan.

XIV – XV asrlarda Movarounnahrda yashagan yirik chorvador qabilalardan yana biri **dug'latlar** hisoblanadi. Rashididdin ularni mo'g'ul qabila ittifoqiga kirgan turkiy qabila deydi, V.V.Bartold esa ularni mo'g'ul deydi. N.A. Aristov dulu va dug'lat bir xalq degan g'oyani o'rta tashlaydi. Darhaqiqat, Turk xoqonligi inqirozga uchragach, uning tarkibida bo'lgan dulu qabilalarining bir qismi ona yurtlari Ili vodiysi, Yettisuvni tashlab, boshqa yurtlarga ko'chib ketadi, qolgan qismi esa ona yurtlarida yashashda davom etadilar.

Chig'atoy ulusi tashkil topgach, Chig'atoy ulusining sharqiy hududlarida Manglay Suba (quyosh tomonga qaragan yer) mulki tashkil topadi. Bu mulkka Yettisuvdan to Qashg'argacha bo'lgan yerlar qaragan va uni boshqarishni Chig'atayxon dug'latlarga topshirgan. Dug'latlar boshqargan yurtlar manbalarda "Mo'g'uliston" atalib, u hududlarning dulu turkiylari, hatto dug'latlarning o'zlarini ham yurt nomi ostida dug'lat-mo'g'ul bo'lib ketgan. Bu fikr O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham o'z aksini topgan [4:393].

Dug'latlarning ayrim guruhleri XIV – XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Samarqand va Hisorda, Qorategin va boshqa joylarda tarqoq holda yashaganlar va turkiyda so'zlashganlar. Hisor dug'lat sultonlari Bobirga beg'araz xizmat qilganlar.

XIV – XV asrlarda Movarounnahrda yashagan yana bir yirik qabila **o'g'uzlar** edi. Ularning bir guruhi Sirdaryoning quyi havzalaridan X asrda Somoniy amirlaridan iltimos qilib, Nurota tog' yonbag'irlariga ko'chib kelgan. O'g'uz saljuqlarining turkman guruhleri XI – XII asrlarda Qoraxoniylar davrida Buxoro atroflari, Shimoliy Xurosonga, ya'ni Hozirgi Turkmaniston hududlariga kelib o'rtnashadi.

XIV – XV asrlarda Sirdaryoning quyi havzasi va Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda yana bir qancha o'g'uz, saljuq turkman guruhleri kirib keladilar. Asrlar davomida o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan o'g'uzlar va saljuq turkmanlarining bir qismi o'z etnik nomlarini unutmagan holda o'troqlashadilar. Ularning keyingi avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari yoki "Nurota turkmanlari" deb ataganlar.

Temuriylar davrining turkiy tilli qabilalaridan yana biri **sulduz** qabilasi bo'lib, Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida aks etgan tarixiy voqealar bayonida ular XIV asrda Chag'oniyon, Hisor vodiysi va Shimoliy Afg'onistonda Balx viloyatida yashaganligi qayd etilgan. Hisori Shodmondagi sulduzlarning amiri Bayon sulduz Chig'atay ulusining g'arbiy qismida e'tiborli amirlardan va amir Qazag'onning Hirotga yurishida qatnashgan. Amir Qazag'onning o'limidan so'ng, uning o'g'li amirzoda Abdulloh Chig'atay ulusi g'arbiy qismida hukmronlikni egallaydi va Samarqandni o'ziga poytaxt qiladi. U Chingiziyzoda mo'g'ul amirlaridan avval Bayonkulixonni, so'ng Temurshoh o'g'lonni soxta xon qilib ko'taradi. Bundan norozi bo'lgan Bayon sulduz lashkar yig'ib, Hisori Shodmondan Samarqandga yurish qiladi. Unga Hoji barlos ham qo'shilib, ular ikkovlashib Abdullohni Samarqanddan quvib chiqaradilar. Amir Temurni hokimiyatga chiqishi oldidan Movarounnahrda yuz bergan feodal tarqoqlikni avj olishida Bayon sulduzning roli bo'lgan. Chunki, u avval Chingiziyzoda Tug'luq Temurga xayrixoh bo'lgan, keyinchalik Amir Temurning mo'g'ullarga qarshi kurashida uning tomoniga o'tib, 1370-yilgi Balx janglarida o'z qo'shinlari bilan qatnashib, Amir Temurning ishonchli amirlariga aylanadi.

Amir Temurni sulduzlar bilan qarindoshligi ham bo'lgan, ya'ni Sohibqiron Bayon sulduzning qizi Ulusni o'z haramiga olgan. Bayon sulduzning o'g'li Shayx Muhammad sulduz dastlab Amir Temurga sadoqatli bo'lgan, biroq keyinchalik Temurga qarshi uyushtirilgan suiqaqasdda qatnashib qatl qilingan [5:40].

Amur Temurga sadoqat bilan xizmat qilgan qabilalardan yana biri **yasavuriy** bo'lib, ular Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida tilga olinishiga qaraganda Samarqand atrofidagi Saripul va Totkanda yashagan. Ularning sardori Xizr Yasavuriy vaziyatga qarab siyosat yurgizuvchi bo'lgani bois, u goh Tug'luq Temurga, goh Amir Temurga yon bosib, og'machilikda nom chiqargan. U 1365-yilda vafot etgan. Shundan so'ng yasavuriylar Hoji Mahmudshoh boshchiligida to'la-to'kis Amir Temurga bo'ysinib, unga sadoqat bilan xizmat qiladi. Amir Temur ham Hoji Mahmudshohni janglardagi jasoratini

hisobga olib, 1370-yilgi Balx yurishidan qaytgach, Keshda mansab taqsimlaganda uni lashkarboshi etib tayinlaydi va u bilan qarindoshlik rishtalarini bog'laydi. Ilyos yasavuriyning qizi Baxt Malik og'ani Mirzo Jahongirga olib bergan. Bu nikohdan Mirzo Pirmuhammad dunyoga keladi. Amir Temur o'limi oldidan uni o'ziga taxt vorisi qilib tayinlagani haqida Ali Yazdiy yozgan [6:296].

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida bir qator turkiy va mo'g'ul qabilalari Movarounnahr hududiga kirib kelib o'troqlashadi. Ushbu qabila va urug'lar mintaqa aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayoti, shuningdek o'zbek xalqining etnik tarkibining kengayishiga xizmat qilgan.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. 452-бет.
2. Мирза Муҳаммад Хайдар. Тарихи Рашиди. Перевод с персидского А.Уринбаева. – Т.: 1966. срт.43.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. 166-бет.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 3-жилд. – Тошкент: 2002. 393-бет.
5. Бўриев О. Шарофиддин Али Яздий “Зафарнома”сида Марказий Осиё аҳолисининг этник-худудий ҳолати хақида маълумотлар // ЎзМУ хабарлари, - Т.: 2013. 40-бет.
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: 1997. 296-бет.
7. Шаниязов К.Ш. Узы (из истории родоплеменных делений узбеков). “Общественные науки в Узбекистане”, 1970, № II. – с.70.